Hamid Olimjon she'riyatida badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanilgan. Sho'r lirkasining takrorlarga boyligi, ayniqsa, leksik takrorlarning mahorat bilan qo'llanilganligi she'rning ta'sir kuchini yanada oshiradi. Hamid Olimjon she'riyatidagi badiiy takrorlar ohangdoshlikni ta'minlagan, tasvirning ifodaliligini oshirgan, mazmun va shakl uyg'unligini hosil qilgan

### KIRISH

Hamid Olimjon o'z asarlarining tiliga katta ahamiyat bilan qaragan ijodkor. U har bir so'zga o'zining fikr ifodalash darajasiga alohida ahamiyat qaratadi. Hamid Olimjon ijodi xalqimizning boy merosi bo'lgan xalq og'zaki ijodi xalq dostonlarining go'zal an'analari bilan chambarchas bo'lib kelgan.

Hamid Olimjon asarlarini tahlil qilar ekanmiz, bu o'rinda adibning xilma-xil janrlarda yaratgan asarlari o'zbek xalqining turli davrlardagi turmush tarzini aks ettirib adabiyotimiz va tilshunosligimizda o'z hissalarini qo'shgan ijodkor.

Nutqda o'z fikrimizni bayon etish uchun tildagi barcha birliklardan foydalanamiz. Leksik birliklar ya'ni, so'zlarni tilshunoslikning bir qismi sifatida o'rganish so'zlarni nutqdan tashqaridagi o'z ma'nosi bilan birga ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tiganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no ematsional -ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etadi. Nutqda so'zlarni kochma ma'noda ishlatishning xilma xil ko'rinishlari mavjud bo'lib ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko' himlarning asosi ikki narsani qiyoslash usuli bilan olib boriladi.

Hamid Olimjon ijodidaham ko'chimlarning turlarini uchratishimiz mumkin.

Tahlili

Hamid Olimjon ijodida „Semurg“ dostoniga nazar tashlaydigan bo'lsak „Semurg“ dostonida ijodkor juda ko'p ko'chim va dialektizmlardan foydalangan. Masalan:

Sening bag'ring tosh emish

Ko'zlarining beyosh emish



Misrada qizning balri toshga o‘xshatilyapti va buning isboti sifatida ko‘zlarini beyosh deb tasvirlayapti. Agar shoir dostonlarini badiiy vositalarning qo‘llanilishi yuzasidan tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi holatlarni kuzatish mumkin bo‘ladi: yozuvchining „Zaynab va Omon“ dostonida badiiy vositalardan o‘xshatish ,sifatlash ko‘p qo‘llanilgan holda jonlantirish, mubolag‘a kabi tasviriy usullar ham uchraydi.

„Oygul bilan Baxtiyor ,Semur“ dostonlarida esa aksincha keyingi ikki vosita ancha faol. Buning boisi keyingi ikki asrning folklor ana’analaridan foydalanilgan holda xalq og‘zaki ijodi motivida yozilganligi, tasvirlanayotgan voqealarning mazmunan xalqning jonli turmushi tarzida moslidigandir. Ma’lumki jonlantirish va mubolag‘a kabi badiiy san’atlar yozma badiiy ijodga emas , balki og‘zaki badiiy ijodga ko‘proq xoslanganligi bilan ajralib turadi . Badiiy vositalardan umuman til vositalaridan bu xilda foydalanishi ijodkorning so‘z qo‘llash mahoratini namoyon etadi.

Hamid Olimjon asarida qofiyaga ham alohida e’tibor bilan yondoshgan va bunda sheva unsurlaridan ham foydalangan.

Qofiyani undosh tovushlar va cho‘ziq unlilar hosil qiladi.

Qofiyadosh so‘zlarni aniqlashda meningcha, she’rdagi fonetik hodisalar , tovushlar takroriga emas ularning misradagi o‘rniga qarab ish ko‘rish lozim. Ohangdoshlik ikki jihatga ko‘ra aniqlanadi:

1.ohangdoshlik misraning turli o‘rnidagi so‘zlarda sodir bo‘lib , takror fonetik xususiyatlari bo‘lsa bu alliteratsiya deyiladi.

2.ohangdoshlik misraning aniq belgilangan o‘rnida sodir bo‘lib, fonetik, leksik , grammatik uylunlikni ifodalasa bu qofiya.

Sarvqomat Parizod

O‘sdi g‘amlardan ozod.

Ushbu jumlada o‘cho‘ziq unlisi va d undosh tovushi ohangdoshlikni yuzaga keltiryapti.

Gulzorlardan, bog'lardan o'tdim,

Bozorlardan tog'lardan o'tdim.

Zaynab va Omon dostonidan olingan parchada birinchi baytda oltita so‘z qo‘llanilgan bo‘lib, ulardan to’rttasi-gulzor-bozor, bog'-tog' qofiyalangan. Ikkinci baytda sakkizta so‘z ishlatalib, kun-tun, botar-yotar so‘zлari qofiyalangan, misralarni ikki bo‘lakka turoqqa ajratgan. Qolgan to’rtta so‘z radifdir. Bu baytdagi qofiyalanish tuzilishi jihatidan bir -biriga o‘xshaganidek, bir-biridan farqlanadi ham. O‘xshashlik



shundaki, har ikki baytda ham bir necha so'zlar qofiyalangan. Qofiyadosh so'zlardan keyin radif qo'llanilgan. Farqi shundaki, birinchi baytda radifdan boshqa barcha so'zlar misralarning har ikki qismi, qofiyadoshdir, qofiyalanishning bu turi mumtoz she'riyatda tarse deb yuritiladi. Radif esa birgina so'zdan iborat.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi misralardan ko'rinish turibdiki, qofiya she'riy nutqning ohangdorligini, jozibadorligini ta'minlabgina qolmaydi, balki, shoir tomonidan olg'a surilgan fikrni, mazmunni tushunish, asarning g'oyasini batafsil anglash imkoniyatini ham beradi. Shoir asarlarining asosiy qismini tashkil etgan umumo'zbek so'zlardan mohironalik bilan foydalangan. Ma'lum jamoa a'zolari uchun tushunlarli bo'lgan va umumxalq tilida keng iste'mol qilinadigan lug'at tarkibining faol qatlamiga kiruvchi ishlab chiqarishning turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan asl o'zbekcha so'zlar so'z san'atkolarining ijodida, asarlarida o'rinli foydalilanilgan. Ular poetik leksikamizning yanada sayqallanishida o'zining muhim ahamiyatini kasb etadi.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.S O'zbek tilining badiiy uslubi. Toshkent -1992, 33-bet.
2. Hamid Olimjon "Muqanna" Toshkent- 1992, 64-bet.
3. Hamid Olimjon Tanlangan asarlar Toshkent-2019. 65-bet
4. H. Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent-2005. 85-bet



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA MDHNING BOSHQA  
MAMLAKATLARI QONUNCHILIGIGA BINOAN DAVLAT  
CHEGARASINI NOQONUNIY KESIB O'TGANLIK UCHUN JINOIY  
JAVOBGARLIK (QIYOSIY TAHLIL)**

*Alijonov Muxammadyusuf Jo'rabek o'g'li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat qonunchiligini qo'llash  
nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi magistranti*

*e-mail: [alijonovmuhammayusuf@gmail.com](mailto:alijonovmuhammayusuf@gmail.com)*

### **ANNOTATSIYA**

Maqola O'zbekiston Respublikasi va MDHning boshqa davlatlarining davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish doirasida jinoyat qonunchiligini qiyosiy o'rghanishga bag'ishlangan. Ushbu mamlakatlarda davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilashda qo'llaniladigan yondashuvlar o'rghanildi, ularning umumiylarini xususiyatlari va farqlari aniqlandi, mavjud xorijiy tajribani hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning mumkin bo'lgan usullari ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** jinoiy javobgarlik; davlat chegarasi; noqonuniy kesib o'tish; qonunchilik; MDH.

Bugungi globallashuv sharoitida hamda dunyodagi qaltis geosiyosiy vaziyatda O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tganlik uchun javobgarlik masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunga mamlakatimizning geografik joylashuvi, atrofimizdagi voqealar munosabati bilan tashqi siyosiy vaziyatning keskinlashgani, dunyoning ayrim mamlakatlaridagi qurolli mojaro tufayli beqarorlik o'chog'ining mavjudligi, shuningdek, davlatlar o'rtasidagi o'zaro hududiy da'volar sabab bo'lmoqda. Shuningdek, transmilliy jinoiy guruh va uyushmalarning ehtimoliy tahdidlari haligacha pasaymagan hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslarning mamlakatimizga noqonuniy migratsiyasi xavfi to'liq hal etilmagan.

Ushbu holatlar O'zbekistonning amaldagi qonunchiligini, shu jumladan davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi jinoyat qonunchiliqi normalarini takomillashtirishni talab qiladi. Shu bois, mazkur sohani jinoiy-huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy tajribani o'rghanish muhim ahamiyatga



ega. O‘z o‘rnida, xorijiy mamlakatlarning mazkur masaladagi asosiy yondashuvlarini tahlil qilish ularning ayrimlaridan O‘zbekistonda foydalanishning ehtimolini ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Avvalambor, MDH davlatlarining tarixan yagona SSSR tarkibida bo‘lganliklarini inobatga oladigan bo‘lsak, davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tish bilan bog‘liq masalalarni jinoiy-huquqiy tartibga solish sohasida umumiy va o‘xhash yondashuvlar mavjud.

MDH mamlakatlari jinoyat qonunchiligining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasida davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tish uchun javobgarlik belgilangan (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 322-moddasi [1], Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 318-moddasi [2], Armaniston Respublikasi Jinoyat kodeksining 329-moddasi [3], Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining 371-moddasi [4], Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 392-moddasi [5], Qirg‘iziston Respublikasi Jinoyat kodeksining 378-moddasi [6], Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 362-moddasi [7], Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 335-moddasi [8], Turkmaniston Jinoyat kodeksining 235-moddasi [9], O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasi [10]).

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, MDHning barcha mamlakatlarida (shu jumladan O‘zbekistonda ham) chegarani noqonuniy kesib o‘tganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi jinoyat-huquqiy normalar blanketlar normalar sifatida shakllantirilgan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasiga ko‘ra, **belgilangan tartibni buzib** chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o‘tish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Dispozitsiyadagi “belgilangan tartib” esa bevosita boshqa qonunchilik hujjalariiga havola qiladi.

Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat formal tarkibli bo‘lib, obyektiv tomoni harakat bilan tavsiflanadi. Aksariyat hollarda, jinoyat-huquqiy normalarining dispozitsiyalarida mazkur harakat va uning mohiyati aniq ochib bermasdan **“chegarani kesish”** atamasi orqali belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston va Moldova Jinoyat kodeksining mazkur qilmish uchun javobgarlik nazarda tutilgan tegishli moddalarining dispozitsiyalari bundan mustasno. Xususan, Moldovada mazkur qilmishning mohiyatini ochib berish uchun **“chegaradan o‘tish”** atamasi qo‘llaniladi, O‘zbekiston Jinoyat kodeksida esa **“kirish”**, **“chiqish”** va **“chegaradan o‘tish”** atamalari qo‘llaniladi.

Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksida chegarani noqonuniy kesib o‘tish bo‘yicha qilmish uchun javobgarlikning o‘ziga xos xususiyati shundaki, jinoyat



qonunida harakatning mohiyatini uni amalga oshirish vositalarini (qurolini) ko'rsatish orqali ochib berishga harakat qilingan. Xususan Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksining 371-moddasiga ko'ra, davlat chegarasini mexanik transport vositasini, ichki suzish kemasi (o'zi yurar), aralash suzuvchi kema, kichik o'lchamli motorli kema, dvigatelli kema, gidrotsikl, dvigatelli havo kemasi vositasida qasddan noqonuniy kesib o'tish, shuningdek Belarus Respublikasi davlat chegarasini boshqa har qanday usulda noqonuniy kesib o'tish, shunday harakat uchun ma'muriy javobgarlik qo'llanilgandan so'ng sodir qilingan bo'lsa javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan.

Umumiy qoida sifatida, MDH mamlakatlari qonunchiligiga binoan davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish subyekti yoshi umumiy hisoblanadi, ya'ni jinoiy javobgarlik yoshiga etgan (16 yosh) aqli raso jismoniy shaxs.

MDHning aksariyat mamlakatlarida (jumladan, O'zbekistonda) ko'rib chiqilayotgan jinoyat huquqi normalarining dispozitsiyasida aybning shakli ko'rsatilmagan. Belarus va Qozog'iston esa bundan mustasnodir, chunki mazkur davlatlar jinoyat qonunchiligining tegishli moddalarida qilmish aynan qasddan sodir etilishi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan.

Chegarani noqonuniy kesib o'tishning motivi, maqsadi va hissiy holatlari mazkur qilmish doirasida subyektiv tomonining zaruriy belgilari sifatida belgilanmagan. Shu bois, ular qilmishning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi, lekin jazo tayinlashda hisobga olinishi mumkin.

MDHning barcha mamlakatlari chegarani noqonuniy kesib o'tishning kvalifikatsiyalovchi (og'irlashtiruvchi) belgilari mavjud.

Jumladan:

- bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib (Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston);
- uyushgan guruh tomonidan (Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Belorusiya, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston);
- zo'rlik yoki kuch ishlatib yoxud shunday kuch ishlatish bilan qo'rqtib (Rossiya, Armaniston, Moldova, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston);
- takroran (O'zbekiston, Turkmaniston);
- chegarani yorib o'tish yo'li bilan (O'zbekiston);
- qurol yordamida (Moldova);
- ayrim maxsus subyektlar tomonidan: ilgari shunga o'xshash jinoyat uchun sudlangan shaxs (Belorusiya); xavfli retsidivist (O'zbekiston); chet el fuqarosi yoki



fuqaroligi bo‘limgan, deportatsiya qilingan yoki mamlakatdan chiqarib yuborilgan shaxs (Belorusiya); mamlakatga kirish huquqi cheklangan shaxs (O‘zbekiston), rasmiy vakolatlardan foydalangan holda mansabdor shaxs (Belorusiya), chet elga chiqishi uchun maxsus kelishuv talab qilinadigan mansabdor shaxs (O‘zbekiston).

Jinoyat sodir etganlik uchun jazolarga kelsak, Turkmanistondan tashqari barcha MDH davlatlarida eng yengil jazo turi sifatida jarima, eng og‘ir turi sifatida esa ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Turkmaniston Jinoyat kodeksida eng og‘ir jazo turi sifatida axloq tuzatish ishlari nazarda tutilgan.

Bularga qo‘srimcha ravishda bir qancha davlatlarda quyidagi jazo turlari ko‘zda tutilgan: majburiy jamoat ishlari (Moldova), ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish (Belarus), shuningdek, qo‘srimcha jazo sifatida molmulkni musodara qilish (Belarus).

Jazoning eng og‘ir turi (ozodlikdan mahrum qilish)ning eng uzoq muddati O‘zbekiston, shuningdek, Tojikiston qonunchiligida nazarda tutilgan bo‘lib, 10 yilni tashkil etadi va bu boshqa MDH davlatlariga nisbatan ancha ko‘p hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun maxsus asos Qozog‘istondan tashqari MDH davlatlarining barcha Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan. Bundan tashqari, Rossiyada, shuningdek, Armaniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, O‘zbekistonda siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun chegarani kesib o‘tgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Belorussiyada bu asos kengroqdir: u qochqin maqomi yoki qo‘srimcha himoya yoki boshpana so‘rab murojaat qilgan shaxslarga ham tegishli. Moldovada esa chegarani noqonuniy kesib o‘tish qoidalari va javobgarlik boshpana huquqidan foydalanish uchun kelgan chet el fuqarolariga, shuningdek, odam savdosi qurboni bo‘lgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

Yuqorida tahlilimiz MDH mamlakatlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi uchun davlat chegaralarini noqonuniy kesib o‘tishdan jinoiy-huquqiy himoya qilishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu mamlakatlarning ayrimlarining qonunchiligida davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilashga o‘ziga xos yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular amaldagi O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-huquqiy normalarini takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Xususan, hozirgi vaqtida O‘zbekistonda chegarani noqonuniy kesib o‘tganlik uchun ma’muriy preyuditsiyani hisobga olgan holda jinoiy javobgarlikni belgilash masalasini qo‘yish va ilmiy o‘rganish zarurati paydo bo‘lmoqda.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba – [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30397073#pos=4226;-44](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397073#pos=4226;-44)
2. Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba – [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30420353#pos=3820;-56](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420353#pos=3820;-56)
3. Armaniston Jinoyat kodeksi. Elektron manba – <http://www.parliament.am/legislation.php?ID=1349&lang=rus&sel=show>
4. Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba – <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>
5. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba – [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=31575252](https://continent-online.com/Document/?doc_id=31575252)
6. Qirg'iz Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba – [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=36675065&pos=431;-49#pos=431;-49](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=36675065&pos=431;-49#pos=431;-49)
7. Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba – [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30394923#pos=4574;-46](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=4574;-46)
8. Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Elektron manba – [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30397325#pos=3388;-35](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397325#pos=3388;-35)
9. Turkmaniston Jinoyat kodeksi. Elektron manba – [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31295286&pos=2150;-40#pos=2150;-40](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31295286&pos=2150;-40#pos=2150;-40)
10. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi – <https://lex.uz/docs/111453?otherlang=1>



## MATEMATIKA DARSIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

*Alikov Nurilla*

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani 1-sonli kasb hunar maktabi*

*Matematika fan o'qituvchisi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada interfaol metod - ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada matematika darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** matematika, metodika, interfaol metodlar, kubik metodi, sinkveyn metodi, venn diagrammasi, klaster metodi, son qatnashgan maqollar aytishuvi metodi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lif- tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o'qituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviyaxloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'lifiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'lifning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlarni bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lif-tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.



Ta’lim jarayoni o‘quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuuni ifoda etish imkonini beradi. Ta’lim mazmunida, shuningdek, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan tushuncha, ko‘nikma hamda malakalarning hajmi ham o‘z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta’lim mazmunining g‘oyaviy jihatdan mukammalligi o‘quvchilar tomonidan muayan bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasi o‘quvchilar tomonidan ma’lum tushunchalarining o‘zlashtirilishi, ko‘nikma va malakalarning shakllanishini ta’minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqliр. Bugungi kunda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faoliiklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi.

Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko`rib chiqamiz. “6x6x6” metodi. “6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalgan etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi



tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“Klaster” metodi. Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob‘ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar va o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. “Zakovatli zukko” metodi. Mavjud bilimlarni puxtao‘zlashtirishda o‘quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega.“Zakovatli zukko” metodi o‘quvchlarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z bilimlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchlar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Metod o‘quvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishslashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

“Charxpak” metodi. “Charxpak” texnologiyasidan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo‘lim tugatilganidan keyin, o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Mashg‘ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo‘ladi. Qolaversa, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham asqotadi.

“Bog‘la” metodi. Bu metoddan nafaqat matematika fanida, balki, balki boshqa fanlardan ham foydalanilsa bo‘ladi. Metod qoidasi shundan iboratki: mavzuga oid



rasm, predmet, qandaydir lavha, portret va hokazolarni o'quvchilarga ko'rsatiladi(mavzuni yozsangiz ham bo'ladi). O'quvchilardan ko'rsatilgan predmet (rasm va boshqalar) ni bugungi mavzuga qay darajada bo'g'liq va qanday bog'liq ekanligi so'raladi. Bu metod nima beradi?

1) masshtab ya'ni o'quvchining fikrlash doirasi sizning mavzuyingiz doirasida yana ham kengroq tahlil qila olish imkonimi beradi.

2) Ijodkorligi oshadi.

3) O'quvchi tengdoshlarining fikrlarini tinglab, siz bergan ma'limotngina emas, balki yana ham kengroq tushunchalarga ega bo'ladi.

Mavzuni nima biladir bilan bo'g'lay olish ko'nikmasi shakllanadi, rivojlanadi. Kreativ fikrlashni o'rganib boradi.

Xulosa Hozirgi kunda dars jarayonlarida o'quvchilarni diqqatini jalb eta olish va ularni bilimlarini yanada boyitish, ularni kreativ fikrlashga o'rgatish uchun yangicha metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yangicha metodlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarni fanga bo'lган qiziqishini oshiradi, balki ularni dunyoqarashini ham kengayishiga xizmat qiladi.

### Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. "Umumiyl o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta'limi j. 1999. № 5
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
3. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005.
4. Sherqulov. M . Ma'ruza matni dan, Toshkent: 2012



## SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIK DARAJASINI OSHIRISH

**Jumanov Hosilbek G'aybulla o‘g‘li**

*Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti  
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi talabasi*

*94 661 20 50*

***Hosilbekjumanov2050@gmail.com***

*Ilmiy rahbar: A. Abdullayev  
„Iqtisodiy tahlil kafedrasi” dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada daromadlarni samarali boshqarish strategiyasi sifatida soliqlarni yig‘ish darajasini oshirish kontseptsiyasi ko‘rib chiqiladi. U mavjud adabiyotlar va iqtisodiy nazariyadan tushunchalar olib, yanada umumlashtirilgan soliq tizimini qabul qilishning afzalliklari, muammolari va oqibatlarini o‘rganadi. Keng qamrovli tahlil orqali maqola soliqlarni yig‘ishni amalga oshirishning turli usullarini ko‘rib chiqadi, uning potentsial natijalari to‘g‘risida empirik dalillarni taqdim etadi va siyosatchilar uchun uning oqibatlari to‘g‘risida tushuncha beradi. Muhokama o‘zaro kelishuvlarni ko‘rib chiqadi va iqtisodiy samaradorlik va ma’muriy soddalikni oshirish uchun soliqlarni yig‘ish strategiyasini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so‘zlar:** soliqlarni yig‘ish, daromadlarni boshqarish, soliq siyosati, iqtisodiy samaradorlik, ma’muriy soddalik.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается концепция повышения собираемости налогов как стратегия эффективного управления доходами. Опираясь на информацию из существующей литературы и экономической теории, в нем рассматриваются преимущества, проблемы и последствия принятия более общей налоговой системы. Посредством всестороннего анализа в статье рассматриваются различные способы сбора налогов, приводятся эмпирические данные о его потенциальных результатах и дается представление о его последствиях для политиков. Обсуждение рассматривает компромиссы и завершается рекомендациями по оптимизации стратегий сбора налогов для повышения экономической эффективности и упрощения администрирования.

**Ключевые слова:** сбор налогов, управление доходами, налоговая политика, экономическая эффективность, административная простота.



**Annotation.** This article examines the concept of improving tax collection as a strategy for effective revenue management. Drawing on information from existing literature and economic theory, it examines the benefits, challenges, and consequences of adopting a more general tax system. Through a comprehensive analysis, the article examines different ways of collecting taxes, provides empirical evidence of its potential results, and provides insight into its implications for policymakers. The discussion examines the trade-offs and concludes with recommendations for optimizing tax collection strategies to improve cost efficiency and simplify administration.

**Key words:** tax collection, revenue management, tax policy, economic efficiency, administrative simplicity.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada daromadlarni samarali boshqarish strategiyasi sifatida soliqlarni yig‘ish darajasini oshirish kontseptsiyasi ko‘rib chiqiladi. U mavjud adabiyotlar va iqtisodiy nazariyadan tushunchalar olib, yanada umumlashtirilgan soliq tizimini qabul qilishning afzalliklari, muammolari va oqibatlarini o‘rganadi. Keng qamrovli tahlil orqali maqola soliqlarni yig‘ishni amalga oshirishning turli usullarini ko‘rib chiqadi, uning potentsial natijalari to‘g‘risida empirik dalillarni taqdim etadi va siyosatchilar uchun uning oqibatlari to‘g‘risida tushuncha beradi. Muhokama o‘zaro kelishuvlarni ko‘rib chiqadi va iqtisodiy samaradorlik va ma’muriy soddalikni oshirish uchun soliqlarni yig‘ish strategiyasini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.

**Kalit so‘zlar:** soliqlarni yig‘ish, daromadlarni boshqarish, soliq siyosati, iqtisodiy samaradorlik, ma’muriy soddalik.

Soliq hukumatlar uchun davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun daromad olishning asosiy vositasidir. Biroq, soliq tizimlarining murakkabligi va samarasizligi soliq to‘lovchilar uchun ham, hokimiyat organlari uchun ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilishning yondashuvlaridan biri soliqlarni yig‘ish darajasini oshirish, soliq tuzilmasi va boshqaruva jarayonlarini soddalashtirishdir. Ushbu maqolada soliqlarni yig‘ishning asoslari, uning potentsial foydalari, muammolari va daromadlarni boshqarish oqibatlari ko‘rib chiqiladi.

Mavjud adabiyotlar turli kontekstlarda soliqlarni yig‘ishning potentsial afzalliklarini ta’kidlaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, yig‘ilgan soliq tizimlari soliq to‘lovchilar uchun muvofiqlik xarajatlarini va hokimiyat uchun ma’muriy yuklarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin. Bundan tashqari, soddalashtirilgan soliq tuzilmasi shaffoflik, tenglik va tushunish qulayligini oshirishi



va shu bilan soliq to‘lovchilarning muvofiqligini yaxshilashi mumkin. Biroq, tanqidchilar daromadlarni taqsimlashga potentsial ta’sir va yangi soliq rejimiga o‘tishning murakkabligi kabi savdo-sotiq bilan bog‘liq xavotirlarni ko‘tarmoqdalar.

Ushbu tadqiqotda soliq yig‘ish bo‘yicha mavjud adabiyotlarni har tomonlama ko‘rib chiqish, nazariy asoslar, empirik tadqiqotlar va siyosat tahlillaridan tushunchalar olish. Tahlil soliqlarni yig‘ish darajasini oshirish bilan bog‘liq asosiy dalillarni, empirik dalillarni va siyosat oqibatlarini aniqlashga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu tadqiqot samaradorligi va muammolarini baholash uchun soliqlarni yig‘ish strategiyasini amalga oshirgan mamlakatlarning amaliy tadqiqotlari va qiyosiy tahlillarini o‘rganadi.

Soliqlarni yig‘ish darajasini oshirish odatda turli xil soliqlarni kengroq toifalarga birlashtirishni yoki murakkablikni kamaytirish uchun soliq tizimini soddalashtirishni o‘z ichiga oladi. Bunga murojaat qilishning bir necha yo‘li:

- Soliq konsolidatsiyasi: o‘xhash soliqlarni kengroq toifalarga birlashtirish. Masalan, daromad solig‘ining har xil turlarini (masalan, shaxsiy daromad solig‘i, korporativ daromad solig‘i) yagona daromad solig‘i tizimiga birlashtirish bu soliq ma’muriyatini soddalashtiradi va muvofiqlik yukini kamaytiradi.

Soliq konsolidatsiyasi, siz ta’riflaganingizdek, o‘xhash soliqlarni kengroq toifalarga birlashtirish orqali soliq tizimlarini soddalashtirishga qaratilgan strategiyadir. Ushbu yondashuv bir nechta potentsial afzalliklarga ega bo‘lishi mumkin, jumladan:

Soddalashtirish: soliqlarning har xil turlarini kengroq toifalarga birlashtirish orqali soliq to‘lovchilar soliq majburiyatlarini tushunishni osonlashtirishi mumkin, bu esa xatolarning kamayishiga va muvofiqlik xarajatlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Samaradorlik: konsolidatsiya davlat boshqaruvi organlari boshqarishi kerak bo‘lgan alohida soliq tizimlari sonini kamaytirish orqali soliq ma’muriyatini soddalashtirishi mumkin. Bu xarajatlarni tejashga va resurslardan yanada samarali foydalanishga olib kelishi mumkin.

Kapital: konsolidatsiya soliq to‘lovchining o‘ziga xos sharoitlaridan qat’i nazar, daromad yoki faoliyatning o‘xhash turlariga izchil ravishda soliq solinishini ta’minalash orqali yanadaadolatli soliq tizimini yaratishga yordam beradi.

Biroq, soliq konsolidatsiyasining kamchiliklari ham bo‘lishi mumkinligini ta’kidlash muhimdir. Masalan, bu ba’zi soliq to‘lovchilarning konsolidatsiya qanday amalga oshirilishiga qarab, yanada murakkab tizimga qaraganda ko‘proq soliq to‘lashiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, soliqlarni birlashtirish soliq



maqsadlari uchun muayyan xatti-harakatlar yoki faoliyatni maqsad qilib qo'yishni qiyinlashtirishi mumkin, bu esa ma'lum soliq siyosatining samaradorligini cheklashi mumkin.

Umuman olganda, soliq konsolidatsiyasi murakkab masala bo'lib, uning potentsial ta'siri va kelishuvlarini diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Hukumatlar konsolidatsiya ularning soliq tizimi uchun to'g'ri yondashuv ekanligini aniqlash uchun soddalashtirish va samaradorlikning afzalliklarini potentsial kamchiliklarga qarshi tortishlari kerak.

•Yagona soliq stavkalari: turli mintaqalar yoki yurisdiktsiyalarda yagona soliq stavkalarini joriy etish soliq ma'muriyatini soddalashtirishi va murakkablikni kamaytirishi mumkin. Bu savdo solig'i stavkalari, mol-mulk solig'i stavkalari yoki korporativ soliq stavkalarini standartlashtirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Turli mintaqalar yoki yurisdiktsiyalarda yagona soliq stavkalarini amalgalashish, birinchi navbatda, soliq ma'muriyatini soddalashtirish va murakkablikni kamaytirishda bir nechta imtiyozlarni taklif qilishi mumkin. Bu erda ba'zi asosiy afzalliklar va mulohazalar:

Soddalashtirilgan muvofiqlik: yagona soliq stavkalari yuridik va jismoniy shaxslarga soliq qoidalarini tushunish va ularga rioya qilishni osonlashtiradi. Doimiy stavkalar bilan, qancha soliq qarzi borligi haqida kamroq chalkashliklar mavjud bo'lib, bu soliqni topshirish jarayonlarini yumshatishga olib keladi.

Ma'muriy yukning kamayishi: hukumatlar soliq ma'muriyatiga, jumladan, ijro etish, yig'ish va soliq to'lovchilarga yordam berishga katta mablag' sarflaydi. Soliq stavkalarini standartlashtirish orqali ma'muriyatlar ushbu jarayonlarni soddalashtirishi, xarajatlarni kamaytirishi va boshqa ustuvorliklar uchun resurslarni bo'shatishi mumkin.

Kengaytirilgan iqtisodiy samaradorlik: mintaqalar bo'yicha soliq stavkalarining o'zgarishi iqtisodiy qarorlar qabul qilishni buzishi mumkin, chunki jismoniy shaxslar va korxonalar o'z tanlovlarni iqtisodiy asoslarga emas, balki soliq masalalariga asoslashlari mumkin. Yagona soliq stavkalari ushbu buzilishlarni yumshatishi mumkin, bu esa resurslarni yanada samarali taqsimlashga olib keladi.

Adolat va tenglikni targ'ib qilish: soliq stavkalarining nomuvofiqligi adolatsizlikka olib kelishi mumkin, ayniqsa o'xhash iqtisodiy faoliyat turli mintaqalarda turlicha soliqqa tortilsa. Yagona soliq stavkalari soliq to'lovchilarga joylashuvidan qat'i nazar teng munosabatda bo'lish orqali adolat va tenglikni targ'ib qiladi.



Shu bilan birga, yagona soliq stavkalarini amalga oshirish bilan bog'liq muammolar va mulohazalar ham mavjud:

1-jadval. 2018-22 yillar uchun YalMga nisbatan byudjetlar daromadlari

mlrd so'm

	2018 y.		2019 y.		2020 y.		2021 y.		2022 y., prognoz	
	summa	YalMga nisbatan %da	summa	YalMga nisbatan %da	summa	YalMga nisbatan %da	summa	YalMga nisbatan %da	summa	YalMga nisbatan %da
YalM	406 648		529 391		602 551		734 588		839 989	
Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari	107 035	26,3%	137 057	25,9%	156 249	25,9%	196 405	26,7%	254 582,5	30,3%
Davlat byudjeti daromadlari	79 099	19,5%	112 165	21,2%	132 938	22,1%	164 681	22,4%	199 500	23,7%

Mintaqaviy tafovutlar: turli mintaqalar turli darajadagi iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma va yashash narxiga ega bo'lishi mumkin. Yagona soliq stavkalarini amalga oshirish nomutanosibliklarni kuchaytirishi mumkin, ayniqsa soliq stavkalari ma'lum hududlar uchun juda yuqori yoki juda past darajada belgilangan bo'lsa.

Siyosiy muammolar: soliq siyosati ko'pincha siyosiy mulohazalarga bo'ysunadi va siyosatchilar soliq stavkalarining pastligidan foyda ko'radigan yoki soliq ustuvorliklari turlicha bo'lgan hududlarning yagona soliq stavkasi takliflariga qarshilik ko'rsatishi mumkin.

Daromad natijalari: yagona soliq stavkalari ayrim hududlarda daromad ortishiga, boshqalarida daromad yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Siyosatchilar fiskal barqarorlikni ta'minlash uchun daromadlar va potentsial kompensatsiya choralarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari kerak.

O'tish xarajatlari: yagona soliq stavkalariga o'tish ma'muriy va amalga oshirish xarajatlarini, shu jumladan soliq tizimini yangilash, xodimlarni qayta tayyorlash va soliq to'lovchilarga o'zgartirishlar kiritishni o'z ichiga olishi mumkin.

Umuman olganda, yagona soliq stavkalarini amalga oshirish bir nechta afzalliklarni taklif qilishi mumkin, bu muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun mintaqaviy dinamikani, daromad oqibatlarini va siyosiy maqsadga muvofiqligini diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi.



•Tekis soliqlar: barcha soliq to‘lovchilar o‘z daromadlari yoki iste'mollarining soliq bilan bir xil foizini to‘laydigan tekis soliqlarni joriy eting. Bu murakkab soliq qavslariga bo‘lgan ehtiyojni yo‘q qiladi va ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi.

•Qo‘silgan qiymat solig‘i (QQS): ishlab chiqarish va taqsimlashning har bir bosqichida qo‘silgan qiymatga soliq soladigan QQS tizimini joriy etish. VATs odatda an'anaviy savdo soliqlariga qaraganda boshqarish osonroq va bir nechta mavjud soliqlarni almashtirish uchun tuzilishi mumkin.

•Soddalashtirilgan ajratmalar va kreditlar: soliq to‘lovchilar uchun eng muhim yoki xulq-atvorga eng katta ta'sir ko‘rsatadigan ajratmalar va kreditlar sonini kamaytiring. Bu soliq topshirishni soddalashtiradi va soliqlardan qochish imkoniyatlarini kamaytiradi.

•Soliq qonunlarini uyg‘unlashtirish: takrorlanish va murakkablikni kamaytirish uchun soliq qonunlari va qoidalarini hukumatning turli darajalarida (masalan, federal, shtat/viloyat, mahalliy) tekislang. Bu standartlashtirish ta'riflar o‘z ichiga olishi mumkin, exemptions, va topshirish talablar.

•Avtomatlashtirish va texnologiya: jarayonlarni avtomatlashtirish va samaradorlikni oshirish uchun soliq ma'muriyati texnologiyasiga sarmoya kriting. Elektron ariza berish tizimlari, onlayn to‘lov portallari va ma'lumotlar tahlili soliq yig‘ish va ijro etilishini soddalashtirishga yordam beradi[6].

•Xalq ta'limi: soliq to‘lovchilarga soliq tizimidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida ma'lumot berish va ularga rioya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish. Aniq aloqa va resurslar soliq to‘lovchilarga o‘z majburiyatlarini tushunishga va xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

Soliqlarni yig‘ish soliq tizimini soddalashtirishi, muvofiqlik xarajatlarini kamaytirishi va samaradorlikni oshirishi mumkin, ammo daromad, kapital va iqtisodiy xatti-harakatlarga potentsial ta'sirini hisobga olish kerak. Har qanday o‘zgarishlar kutilmagan oqibatlarsiz o‘z maqsadlariga erishishlarini ta'minlash uchun diqqat bilan baholanishi kerak.

Muhokama soliqlarni yig‘ish strategiyasini amalga oshirishda ishtirok etadigan savdo-sotiqlarni ko‘rib chiqadi. Soliq tizimini soddalashtirish muhim foyda keltirishi mumkin bo‘lsa-da, daromad yo‘qotish potentsiali, taqsimot oqibatlari va ma'muriy murakkabliklar kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Siyosatchilar ushbu savdo-sotiqlarni diqqat bilan ko‘rib chiqishlari va samaradorlik, kapital va daromadlarning etarliligini muvozanatlashtiradigan soliqlarni yig‘ish sxemalarini ishlab chiqishlari kerak. Bundan tashqari, samarali aloqa va manfaatdor tomonlarni



jalb qilish qo'llab-quvvatlash va soliq islohoti tashabbuslari bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir.

### Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, soliqlarni yig'ish darajasini oshirish daromadlarni boshqarishni takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va'da beradi. Shu bilan birga, soliq islohoti harakatlarining o'ziga xos konteksti va maqsadlarini ko'rib chiqadigan nuanced yondashuvni qabul qilish juda muhimdir. Siyosatchilar soliqlarni yig'ish sxemalarini loyihalashda soddaligi, shaffofligi va ma'muriy maqsadga muvofiqligini bиринчи o'ringa qo'yishlari kerak. Bundan tashqari, yuzaga keladigan muammolarni hal qilish va soliq siyosati islohotlarining samaradorligini ta'minlash uchun doimiy baholash va moslashtirish zarur. Umuman olganda, soliqlarni yig'ish strategiyasini optimallashtirish orqali hukumatlar daromadlarni boshqarish jarayonlarini soddalashtirishi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi va soliq to'lovchilarning muvofiqligini yaxshilashi mumkin.

### Adabiyotlar.

1. Allred, B. B., Nielson, D. L., Sharman, J. C., & Findley, M. G. 2017. Anonymous shell companies: a global audit study and field experiment in 176 countries. Forthcoming, Journal of International Business Studies.
2. Cheynel, E. 2013. A theory of voluntary disclosures and cost of capital. Review of Accounting Studies, 18(4), 987–1020.
3. Balakrishnan, K., Blouin, J., & Guay, W. R. 2015. Does tax aggressiveness reduce financial reporting transparency? Working Paper, London Business School and University of Pennsylvania
4. Dunne, K. M., & Ndubizu, G. A. 1995. International acquisition accounting method and corporate multinationalism: evidence from foreign acquisitions. Journal of International Business Studies, 26(2), 361–377.
5. Government Accountability Office (GAO). 2008. Large US corporations and federal contractors with subsidiaries in jurisdictions listed as tax havens or financial privacy jurisdictions. GAO-09-157. Washington, DC, Decembe
6. Hope, O.-K., Ma, M., & Thomas, W. B. 2013. Tax avoidance and geographic earnings disclosures. Journal of Accounting and Economics, 56, 170–189.
7. Klassen, K. J., & Laplante, S. K. 2012b. Are US multinational corporations becoming more aggressive income shifters? Journal of Accounting Research, 50, 1245–1285.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJETI DAROMATLARINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

*Axmadjonov Xoziakbar Ixtiyorjon o‘g‘li*  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti*  
*Moliya fakulteti talabasi*  
*Ilmiy rahbar: A. Abdullayev*  
*, „Iqtisodiy tahlil kafedrası“ dotsenti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi byudjetidagi daromadlarning joriy holati har tomonlama tahlil qilingan. Iqtisodiy ko'rsatkichlar, daromad oqimlari va fiskal siyosatni o'rganish orqali u mamlakatning moliyaviy manzarasi haqida tushuncha berishga qaratilgan. Tadqiqotda O'zbekistonning byudjet daromadlari to'g'risida chuqur tushuncha berish uchun adabiyotlarni o'rganish, statistik tahlil va iqtisodiy metodologiyalardan foydalanilgan. Tendentsiyalar, muammolar va imkoniyatlarni olib berish orqali u millatning keng iqtisodiy traektoriyasiga oydinlik kiritadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, byudjet, daromadlar tahlili, iqtisodiy ko'rsatkichlar, fiskal siyosat, daromadlar oqimi.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston Respublikasi 1991 yilda mustaqillikka erishganidan buyon muhim iqtisodiy o'zgarishlarga guvoh bo'ldi. O'zbekistonning iqtisodiy siyosati va faoliyati mintaqadagi eng yirik va aholisi ko'p mamlakatlardan biri sifatida katta ahamiyatga ega. Uning iqtisodiy asosining hal qiluvchi jihat davlat byudjeti bo'lib, u davlat operatsiyalari va davlat xizmatlari uchun moliyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu byudjetning Markaziy qismi turli manbalar, shu jumladan soliqlar, tariflar va boshqa daromad oqimlari orqali olinadigan daromadlardir. Byudjet daromadlari dinamikasini tushunish siyosatchilar, iqtisodchilar va fuqarolar uchun juda muhimdir, chunki bu mamlakatning moliyaviy salomatligi, ustuvorliklari va rivojlanish traektoriyasini aks ettiradi. Ushbu maqola O'zbekiston byudjeti daromadlarining hozirgi holatini tahlil qilish, uning tarkibi, tendentsiyalari va iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishga qaratilgan<sup>1</sup>.

O'zbekiston byudjeti daromadlarining hozirgi holatini tahlil qilish uchun ushbu tadqiqotda aralash usul qo'llaniladi. Miqdoriy tahlil rasmiy manbalardan, shu

<sup>1</sup> Malikov T.S, Olimjonov O.O Moliya darslik-T “Iqtisod-moliya”, 2019 125 b.



jumladan hukumat hisobotlari, statistik nashrlar va iqtisodiy ko'rsatkichlardan olingan fiskal ma'lumotlarni tekshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar punktlari naqsh va munosabatlarni aniqlash uchun trendlarni tahlil qilish, regressiyani modellashtirish va qiyosiy baholash kabi statistik metodlarga bo'y sunadi. Sifatli tahlil ekspert intervylaridan, siyosiy hujjatlardan va ilmiy adabiyotlardan tushunchalarini kiritish orqali miqdoriy topilmalarni to'ldiradi. Ushbu tadqiqot turli xil ma'lumot manbalarini uchburchagi bilan O'zbekistonning byudjet daromadlari to'g'risida aniq tushuncha berishga qaratilgan.


Yurtimizda chuqur iqtisodiy isloxoxtlar amalga oshirilayotgan xozirgi zamonda davlat budgeti daromatlari yaxshilanishi va samarali boshqarilish ahamiyati g'oyat yuksakdir. Bugungi kunda Davlat tomonidan islohotlar qilish va tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, xamda ularning samaradorligini yanada oshirish kabi vazifalarini kun tartibiga qo'yar ekan u o'z navbatida budget daromadlarini samarali shakllantirish tizimini joriy qilmoqligi zarur xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiylarining elementlaridan biri bo'lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini budgetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Budget daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (budget) kategoriyaning namoyon bo'lish shakli budgetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va ajratmalardan iborat. Davlat budgetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarining turi, mablag'larning tushish shakli va ularni budgetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin<sup>2</sup>. Eng avvalo, davlat budgetining daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi: Soliqli daromadlar, nosoliqli daromadlar, tiklanmaydigan tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Nosoliqli daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi: - davlat mulkidan foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng); - budget tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan haqli (to'lovli) xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan

<sup>2</sup> E.Gadoev, N.Kuzieva. Jismoniy shaxslani soliqqa tortish. Oliy o`quv yurtlari talabalari uchun darslik. TDIU, Iqtisodiyot. 2019 y. 430 b



so'ng); - fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, konfiskatsiyalar, kompensatsiyalar va davlat sub'ektlariga etkazilgan zararlarni tiklash bo'yicha olingan mablag'lar; - moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (budget ssudalari va budget kreditlaridan tashqari); - boshqa nosoliqli daromadlar<sup>3</sup>. Hozirgi amaliyotda Davlat budgetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiya qilinayapti



